

Kuzning og'ushida bu kun Vatanim

Amirqul Po'ltan



Anagrammalarni yeching. Bu so'zlarning umumiy jihati nimada?

TIBATA

G'LYMOR

MOSHAL

QAYROP



Shamollar daraxtning bargini uzar,
Shamollar qamchilab junjitar tanim.
Sarg'aygan bog'larda oltin kuz kezar,
Kuzning og'ushida bu kun Vatanim.

Daraxtlar libosin yecharkan asta,
Bo'y cho'zib qolishar ufqqa boqib.
Quyosh inib* ketar ufqdan pastga,
Yulduzlar termilar chirog'in yoqib.

Yaproqlar shiviri yo'q endi bunda,
So'ppayib turibdi yalang'och tana.
Daraxtlar mudrashar yulduzli tunda,
Tabiat bizlarni siylar deb yana.

Paymoni to'lgan* chog' kuz ham ketadir,
Mangu yaralmagan faslning bari.
So'ngra qish bog'larga tashrif etadir,
Shamshiri qayralgan botir singari.





inmoq – yuqoridan pastga tushmoq
paymoni to'lmoq – kuni bitmoq



1. She'ning birinchi to'rtligida kuz faslining kirib kelishi va ob-havoning o'zgarishi qanday tasvirlangan?
2. "Daraxtlar libosin yecharkan asta" va "yalang'och tana" iboralari orqali muallif nimani nazarda tutmoqda?
3. Tungi manzara, quyoshning botishi va yulduzlar tushunchasi she'rda qaysi misralarda aks etgan?
4. Shoir qish faslining kirib kelishini va uning shiddatini qanday o'xshatish orqali bergan?
5. "Paymoni to'lmoq" iborasi she'rda qanday ma'noda qo'llangan?
6. She'rdagi epitetlarni toping.



Epitet – narsalarni ko'chma ma'noda tasvirlash uchun ularga qo'shib ishlatiladigan sifatlovchi so'z.

Masalan: *oltin qo'llar, kumush qish.*



She'rni yod oling.

